

XUDUDLARDA MAHALLABAY ISHLASH TIZIMI ORQALI ISHSIZLIK DARAJASINI PASAYTIRISH VA XAR BIR MAHALLADA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISH

Achildiyeu Abdug'ani Abdullajonovich

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi xuzuridagi soliq qo'mitasi xodimi.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada xududlarda mahallabay ishlash tizimi va u orqali ishsizlikni kamaytirish haqida shuningdek, mahallalarda kichik biznesni rivojlantirish haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Mahalla, ishsizlik, tadbirkorlik, manfaat, daromad, boylik, muammo, iqtisodiyot.*

Ishsizlik inson manfaatlariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladigan yirik ijtimoiy-iqtisodiy muammolardan biri hisoblanadi. Ish joyini yo'qotish ko'p kishilar uchun oilaviy turmush darajasining pasayishi, shaxsiy hayotining notinchligini keltirib chiqaradi, kishiga jiddiy ruhiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu sababli mamlakatimizda keyingi yillarda doimiy daromad manbaiga ega bo'lmagan va ishsiz aholining, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlarning qiziqishlarini o'rganish orqali ularni kasb-hunar va tadbirkorlikka o'rgatuvchi o'quv markazlariga yo'naltirish hamda o'qishni tamomlagan bitiruvchilarning bandligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

“Mahallabay” ishlash asosida “og'ir” mahallalarda tadbirkorlikni yanada qo'llab-quvvatlash bo'yicha “Andijon tajribasi”ni respublikaning boshqa hududlarida ham tatbiq etish uchun davlat ulushiga ega bo'lgan tijorat banklariga \$100 mln ekvivalentidagi mablag'lar ajratiladi.

Bugun O'zbekistonda mahalla tizimiga bo'lgan e'tibor tubdan o'zgardi. Zero, bu aholi bilan bevosita ishlashning eng samarali va an'anaviy mexanizmidir. Xalq bilan muloqotning bunday usulini boshqacha qilib mahallabay ishlash tizimi deb atayapmiz Rivojlangan davlatlar bilan raqobatbardoshlik xususiyatini oshirib borishning ijtimoiy sharti — boshlang'ich bo'g'inlardagi og'riqli nuqtalarni aniqlash va uni bartaraf etishda jamoaviy yondashuvlarni tashkil etish hisoblanadi.

Mahallabay ishlash tizimi murakkab jarayon bo'lishiga qaramasdan, unda har bir insonning dardini tinglash, uning qismatini tubdan o'zgartirish, jamiyat taraqqiyotini iqtisodiy o'sishlar bilangina emas, balki aholining o'z hayotidan mamnunligi bilan o'lchash kabi mezonlar mavjud.

Ushbu tizim o'z navbatida, siyosiy chaqiruv ham hisoblanadi. Unga ko'ra ijtimoiy-iqtisodiy reformalar, ichki va tashqi resurslar hisobiga amalga oshiriladigan loyihalar, turli idora va tashkilotlarning “faoliyat yo'laklari” mahallalar kesimida tashkil etiladi.

Shuning natijasida ayni vaqtda yurtimizdagi barcha sohalar faoliyatida va kechayotgan o'zgarishlar mohiyatida mahallabay so'zining ahamiyati kundan kun ortib bormoqda. Respublikamizdagi barcha tashkilot va idoralarning mazkur amaliyot natijasida joylarda tashkil etayotgan ish faoliyati aynan mahallalardagi o'zgarishlar va bu orqali mavjud muammolarning hal etilishiga qaratilgani bilan yana-da ahamiyatlidir.

Darhaqiqat, mahalladagi mavjud muammolar va aholining kundalik masalalarini hal etish birgina mahalla tizimi xodimlari tomonidan bartaraf etish imkonsiz. Shu sababli bu jarayonda har bir soha mas'ullarining ishtiroki va aralashuvi muhim jihatdir. Joylarda olib borilayotgan mahallabay ishlash mexanizmining ham muhim asosini ana shu tamoyil — barcha soha vakillarining hamjihat bo'lib, hududlardagi masalalarni yechishga kompleks yondashishi tushuniladi.

Aytaylik, bugun odamlarning eng muhim muammosiga aylanib borayotgan gaz va issiqlik ta'minotini yaxshilash masalasini «Hududgazta'minot» AJning joylardagi mas'ullari ishtirokisiz amalga oshirib bo'lmaydi. Shuningdek, suv, yo'l va boshqa muhim sohalarda sezilarli o'zgarish yasash uchun ham shu hududdagi aynan o'sha tizim xodimlarining doimiy ishtiroki muhim ahamiyatga egadir.

Mahallabay ishlash, bu — barcha soha mutasaddilarining bir musht bo'lib, mahallalardagi muammolar, aholi turmushidagi muhim masalalarni birgalikda hal etishning yangicha mexanizmidir.

Qabul qilingan hujjat bilan “mahallabay” ishlash yo'nalishining asoslari belgilandi:

- mahallalarning “o'sish nuqtalari”ni (ixtisoslashuv yo'nalishlarini) aniqlash va tadbirkorlik loyihalarini amalga oshirishda ko'maklashish;

- aholining doimiy daromad manbalarini yanada ko'paytirish, oilaviy tadbirkorlikni va o'zini o'zi band qilib ishlash faoliyatini yanada kengaytirish choralari ko'rish;

- mahallalarda tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish istagi bo'lgan tashabbuskorlarni biznes asoslariga o'qitish;

- xonadonlarda tomorqa yerlaridan samarali foydalanish, daromadlilikini yanada oshirish, mahsulot ishlab chiqarish uchun zarur asbob-uskuna va xom-ashyo bilan imtiyozli kreditlar asosida ta'minlash, shuningdek, ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotishga ko'maklashish jarayonlarini tashkil etish uchun “yetakchi” tadbirkorlik sub'yektlarini biriktirish;

- tadbirkorlik loyihalarini amalga oshirishga ko'maklashish va faoliyatini monitoring qilib borish, ishlab chiqaradigan mahsuloti (xizmati) bozorini topishiga yordam berish.

Belgilanishicha:

- “yetakchi” tadbirkorlar yetarli tadbirkorlik tajribasiga va ijobiy moliyaviy ko'rsatkichlarga ega, faoliyati mahalla ixtisoslashuviga mos bo'lgan, xonadonlarni

kooperatsiya asosida yuqori darajada qamrab oladigan, “og‘ir” mahallalarda o‘z biznesini rivojlantirish dasturiga ega bo‘lgan tadbirkorlar orasidan tanlab olinadi;

• tijorat banklari tomonidan kreditlar kooperatsiya asosida kichik biznesni va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga ko‘maklashish uchun “og‘ir” mahallalarga biriktirilgan “yetakchi” tadbirkorlik sub’yektlariga 3 yil muddatgacha yillik 10% stavkada bitta mahalla uchun 2 mlrd so‘mgacha miqdorda ajratiladi;

yetakchi” tadbirkorlarga kooperatsiya asosida ishlayotgan fuqaro tomonidan ishlab chiqarilayotgan (yetishtirilayotgan) mahsulotlarni sotib olish yoki shartnomaga asosan fuqaroga oylik ish haqi to‘lash sharti o‘rnatiladi.

Aholining tadbirkorlik tashabbuslarini amalga oshirishga moliyaviy ko‘maklashish, ularning daromadli mehnat bilan bandligini ta‘minlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish, mahallabay ishlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish orqali kambag‘allikni qisqartirish, respublika, viloyat, tuman va shaharlarda ko‘rsatiladigan davlat xizmatlari va manzilli moliyaviy qo‘llab-quvvatlash instrumentlarini bevosita mahalla darajasiga tushirish maqsadida:

1. 2022-yil 1-yanvardan boshlab har bir shaharcha, qishloq, ovulda, shuningdek, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar hamda ovullardagi har bir mahallada (keyingi o‘rinlarda — mahallalar) tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta‘minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha tuman (shahar) hokimining yordamchisi (keyingi o‘rinlarda — hokim yordamchisi) lavozimi ta‘sis etilsin.

2. Quyidagilar hokim yordamchilarining asosiy vazifalari va faoliyat yo‘nalishlari etib belgilansin:

mahalladagi ijtimoiy-iqtisodiy holatni xonadonbay o‘rganish, jumladan aholining bandlik darajasini, oilalarning daromad manbalarini, tomorqa yerlaridan foydalanish holatini hamda daromadli mehnatga bo‘lgan intilishi va ehtiyojlarini tahlil qilish;

mahallada tadbirkorlikni rivojlantirishning ichki imkoniyatlari, tadbirkorlik bo‘yicha ixtisoslashuv va mehnat resurslarini inobatga olgan holda, uni rivojlantirishga turtki beradigan omillar va yo‘nalishlarni belgilash, ularni ishga solish orqali mahallaning iqtisodiy rivojlanishini ta‘minlash;

doimiy daromad manbaiga ega bo‘lmagan va ishsiz aholining, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlarning qiziqishlarini o‘rganish orqali ularni kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘rgatuvchi o‘quv markazlariga yo‘naltirish hamda o‘qishni tamomlagan bitiruvchilarning bandligini ta‘minlashga yordam berish;

mahalladagi mavjud bo‘sh ish o‘rinlarini hamda xo‘jalik yurituvchi subyektlarning mavsumiy ishechilarga bo‘lgan talabini aniqlash orqali ishsizlarni, birinchi navbatda, “temir daftar”, “ayollar daftari” va “yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlar va xotin-qizlarni bo‘sh (vakant) ish o‘rinlariga joylashtirish hamda haq to‘lanadigan jamoat ishlariga jalb qilish;

mahallada istiqomat qiluvchi aholining oilaviy tadbirkorligini rivojlantirish, jumladan ularning hunarmandchilik, kasanachilik, tomorqadan samarali foydalanish, kichik ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va boshqa turdagi faoliyatni yo'lga qo'yishi uchun oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida kreditlar olishda ko'maklashish;

mahallaning ixtisoslashuvidan kelib chiqib, kooperatsiya asosida tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish istagini bildirgan yetakchi tadbirkorlarga imtiyozli kreditlar ajratishni tashkil etish, ularga tadbirkorlik bilan mustaqil shug'ullanish tajribasiga ega bo'lmagan fuqarolarni o'z faoliyatini yo'lga qo'yishi uchun ularga biriktirish;

aholi tomorqalaridan samarali foydalanishni tashkil etish, uy sharoitida dehqonchilik, chorvachilik, parrandachilik, quyunchilik, asalarichilik, urug'chilik, ko'chatchilik, gulchilik kabi faoliyat turlarini yo'lga qo'yishga ko'maklashish;

mahalladagi ish bilan band bo'lmagan aholining tadbirkorlik va doimiy daromad keltiruvchi faoliyat bilan shug'ullanishini yo'lga qo'yish maqsadida ularga issiqxona qurish, tomorqasini sug'orish uchun vertikal sug'orish quduqlarini burg'ilash, qishloq xo'jaligi kooperativiga a'zo bo'lish, asbob-uskuna va mehnat qurollarini xarid qilish, bino va inshootning ijara to'lovi hamda kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qishi uchun subsidiyalar olishda ko'maklashish;

mahalladagi bo'sh bino va yer maydonlarini aniqlab, ularni belgilangan tartibda tadbirkorlik subyektlariga ajratish bo'yicha tegishli tashkilotlarga takliflar kiritish;

tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga to'siq bo'layotgan muammolarning (muhandislik-kommunikatsiya tizimlariga ulanish va ulardan foydalanish, turli xil faoliyatni yo'lga qo'yish uchun ruxsatnomalar va litsenziyalar olish, bo'sh bino va yer maydonlarini tadbirkorlik bilan shug'ullanish uchun ajratish va boshqalar) tegishli tashkilotlar tomonidan hal etilishini tashkil etish.

Barcha vazirlik va idoralarning birinchi rahbarlari hokim yordamchilariga ularning vazifalarini amalga oshirishda har tomonlama ko'mak berish uchun shaxsan mas'ul va javobgar hisoblanadi.

Bu ishlarni olib borishda mahalla tizimlari asosiy tayanchga aylandi. Mahallalardagi mavjud bo'sh ish o'rinlari hamda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning mavsumiy ishchilarga bo'lgan talabini aniqlash orqali ishsizlar, birinchi navbatda, "Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlar va xotin-qizlarni bo'sh ish o'rinlariga joylashtirish hamda haq to'lanadigan jamoat ishlariga jalb qilishga katta ahamiyat berilyapti.

Shuningdek, mahallada istiqomat qiluvchi aholining oilaviy tadbirkorligini rivojlantirish, jumladan, ularning hunarmandchilik, kasanachilik, tomorqadan samarali foydalanish, kichik ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va boshqa turdagi faoliyatni yo'lga qo'yishi uchun oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida kreditlar olishda ko'maklashilmoqda. Natijada, mahallasidan uzoqlashmagan holda, kichik biznes tashkil etib, o'zi, oilasi va hududidagi kam ta'minlangan oilalar a'zolarini ish bilan band qilayotgan insonlar soni ortib boryapti.

Davlatimiz rahbarining joriy yil 3-dekabrda “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari to'g'risida”gi Farmoni o'z vaqtida qabul qilingani bilan ahamiyatlidir.

Nega desangiz, joylarda saylovchilar bilan uchrashuvlarimiz chog'ida ko'plab yoshlar, xotin-qizlar bilan suhbatlashamiz, muloqot qilamiz. Ochig'i, ularning aksariyatida tadbirkorlik bilan shug'ullanishga, biznesni boshlashga bo'lgan qiziqish yuqori. Ko'zlari yonib turibdi, qalbi orzularga to'la. Lekin ularning biror ishni boshini tutishiga, o'z loyihasini amalga oshirishiga imkoniyati yo'q, qurbi etmaydi.

Yuqoridagi farmon bilan ana shunday insonlarga ko'maklashish tizimini yanada faol tashkil etish ko'zda tutilgan. Xususan, mahallaning ixtisoslashuvidan kelib chiqib, kooperatsiya asosida tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish istagini bildirgan etakchi tadbirkorlarga imtiyozli kreditlar ajratish, tadbirkorlik bilan mustaqil shug'ullanish tajribasiga ega bo'lmagan fuqarolarning ularga birlashtirilayotgani ayni muddao bo'ldi.

Eng muhimi, aholi tomorqalaridan samarali foydalanishni tashkil etish, uy sharoitida dehqonchilik, chorvachilik, parrandachilik, quyunchilik, asalarichilik, urug'chilik, ko'chatchilik, gulchilik kabi faoliyat turlarini yo'lga qo'yishga ko'maklashilayotgani ko'plab yoshlar, xotin-qizlar bandligini ta'minlashda katta ahamiyat kasb etadi.

Mazkur hujjat bilan 2022-yil 1-yanvardan boshlab har bir shaharcha, qishloq, ovulda, shuningdek, har bir mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha tuman (shahar) hokimining yordamchisi lavozimi ta'sis etilayotgani ham muhim yangiliklardan biridir. Ular mahalladagi ijtimoiy-iqtisodiy holatni xonadonbay o'rganadi, aholining bandlik darajasi, oilalarning daromad manbalari, tomorqa erlaridan foydalanish holati hamda daromadli mehnatga bo'lgan intilishi va ehtiyojlarini tahlil qiladi.

Albatta, mamlakatimizda mehnatga layoqatli kishilarning bandligini ta'minlash, fuqarolar turmush farovonligini oshirish, hayot darajasini yuksaltirish masalasiga katta e'tibor qaratilayotgani bejiz emas. Chunki ishsizlik o'z ortidan ko'plab muammolarni yetaklab keladi. Shu bois, har bir insonning turmush darajasini yanada yaxshilash, mahallalarda odamlar uchun munosib sharoitlarni yaratish hozirgi paytda har qachongidan ham muhimroq.

Shu jihatdan aholining tadbirkorlik tashabbuslarini amalga oshirishga moliyaviy ko'maklashish, ularning daromadli mehnat bilan bandligini ta'minlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish bugun kechiktirib bo'lmas vazifadir. Ushbu farmon esa mahallabay ishlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish orqali kambag'allikni qisqartirish, respublika, viloyat, tuman va shaharlarda ko'rsatiladigan davlat xizmatlari va manzilli moliyaviy qo'llab-quvvatlash instrumentlarini bevosita mahalla darajasiga tushirishga xizmat qiladi.

Ana shunday sa'y-harakatlar sabab bugun yangi O'zbekistonda katta o'zgarishlar, yangiliklar ko'z o'ngimizda yuz bermoqda. Ilgari ishsiz va daromad manbaiga ega bo'lmagan yoshlar, xotin-qizlar bugun doimiy ish joyiga, daromad manbaiga ega bo'lib xotirjam hayot kechirmoqda. Jamiyatga, davlatga, mahalla-ko'yga, qishlog'iga, yurtiga foydasi tegyapti. Bu Prezidentimiz o'z vazifasiga kirishgan ilk kunlardanoq xalqni rozi qilish, odamlarni baxtli va farovon yashashlari uchun barcha choralarni ko'rib kelayotganliklari tufaylidir.

Bu jarayonlarda barchamizdan faollik talab etiladi. Xususan, hujjat ijrosini ta'minlash uchun yoshlarning, ayollarning qiziqishlari, layoqatlarini hisobga olib, banklardan kreditlar olish tartibi bilan tanishtirishimiz, issiqxona qurish istagidagi yoki chorvachilik, parrandachilik bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan fuqarolarga amaliy yordam berishimiz darkor. Shundagina tizimli ishlar o'z samarasini beraveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelejagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz O'zbekiston NMIU 2017 yil

2. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manffatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi .Tosh kent”O'zbekiston 2017 yi

3;.K.,Samadov A.N., Xodjaev R.S. Kichik biznes va tadbirkorlik. - T.: AV1V MAZNK1UOT1, 2011 y.

4.G'oyibnazarov B.K., Rahmonov H.O., Otajonov SH.I., Almatova D.S. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik- mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy tnraqqiyotini yuksaltirish omili.-T.:Fan,2011 y.